

UDK: 619: 636.2: 614. 4

**HAYVONLARNING INFEKSION KASALLIKLARINI ANIQLASHDA
ALLERGIK VA SEROLOGIK DIAGNOSTIKA USULLARI.**

Klichov O.I. - assistent

Kulmirzayeva M.I. - magistr

Sulaymanova D.Z. – talaba

Rahmatullayev B.K. - talaba

Safarova D.U. - talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada infeksion kasalliklarni oldini olish maqsadida allergik va serologik diagnostika usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Allergen, tuberkulin, AR, RBN, Sut halqali reaksiya.

Kirish. Mamlakatimizda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirish bo'yicha keyingi yillarda chiqarilgan Prezidentimiz Farmon va Qarorlari, VM-sining qarorlari, VCHRQ - ning qarorlari, ularning ijrolari. O'zbekistonda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikni rivojlantirish keyingi yillarda davlat e'tibori miqyosidagi masalalarga kiritilgan.

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 9-dekabrdagi «Qishloq xo'jalik hodimlari kuni» munosabati bilan tashkil etilgan tadbirdagi nutqida veterinariya tizimi ahamiyati haqida shunday degan edi: «Aholini sifatlari go'sht, sut, tuxum va baliq maxsulotlari bilan yetarlicha ta'minlash eng asosiy vazifalarimizdan biridir. Bunga erishish uchun quyidagi masalalarga a'lohida e'tibor qaratishimiz zarur. 2018-2019 yillarda bank kreditlari hisobidan 145 loyiha doirasida qo'shimcha 35 ming bosh zotdor qoramol boqish yo'lga qo'yiladi. Umumiyligi qiymati 280 mlard so'm bo'lgan 80 ta loyiha asosida qo'shimcha 3 mln 200 ming bosh parranda boqishga mo'ljallangan xo'jaliklarni tashkil etish zarur. Shuning hisobidan 2018 yilda tuxum yetishtirishni 10% ga oshirib, uning umumiyligi hajmini 7 mln 800 mln. donaga yetkazish imkoniyati yuzaga keladi. Kelgusi yilda 2019 yilda baliq yetishtirishni 150 ming t. ga yetkazish maqsadida 215 milliard so'mlik, 280 loyiha amalga oshiriladi, 1 ming 650 ta sun'iy suv havzalari tashkil etiladi. 25 ta suv omborida Vietnam tajribasi asosida 13- ming tonna, 37 ming hektar sholizorda qariyb 15 ming t. baliq yetishtirish bo'yicha chora-tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda xar bir fermer xo'jaligida 14 ming sog'in sigir, 21 ming 125 fermer xo'jaligining har birida 50-boshdan, jami 1 mln 57 ming parranda, 66 ming fermer xo'jaliklarida 329 ming quти asalari boqish hisobidan 7 ming 200 tonna asal yetishtirishni yo'lga qo'yish mumkin.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda veterinariya sohasining eng muhim jihatlaridan biri bu hayvonlarning infeksion kasalliklaridir. Chunki infeksion kasalliklar orqali har yili dunyoda juda ko'p miqdorda hayvonlar nobud bo'lmoqda va juda ham katta iqtisodiy zarar keltirmoqda, shuning uchun ham hozirgi vaqtida

infektion kasalliklarni aniqlashda allergik va serologik diagnostika usullari qo'llash orqali infektion kasalliklarni oldini olishda ijobjiy natijalarga erishishimiz mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Tuberkulyozga allergik diagnoz qo'yish uchun ishlataladigan tuberkulin ko'zga tomiziladi va teri orasiga yuboriladi. Ko'zga 5-6 kun oralig'ida 2 marta tomizilib, 6-9-12-24 soatdan keyin tekshiriladi. Teri ostiga 0,2 ml yuboriladi va 72 soatdan keyin tekshiriladi. Atipik mikobakteriyadan tayyorlangan tuberkulin. Sut emizuvchilarga 0,2 ml, parrandalarda 0,1 ml, sigirlarning bo'yning teri orasiga, buqalarni demining ostiga, qo'y va echkilarning qovog'iga yuboriladi. Reaksiya qoramollarda 72 soat, qo'y – echkilarda 48 soat, parrandalarda 30-36 soatdan keyin tekshiriladi. Quruq tozalangan PPD – sut emizuvchilar uchun. Quruq tozalangan PPD – parrandalar uchun.



1 va 2 rasm. Tuberkulyozni allergik diagnostika usuli orqali aniqlash.

Brutsellyozga serologik tekshirish usullaridan AR, RBN, sut halqali reaksiya qo'yildi. AR 1 ml hajmda 4 ta nisbatda qo'yildi. Qo'y, echki, qon zardobi 1:25 dan 1:200 gacha (ijobjiy natija 1:50 va undan yuqori titr). Y.sh.m, 1:50 dan 1:400 gacha (1:100 va yuqori titr ijobjiy). Dengiz cho'chqasi va mo'ynali hayvonlarda 1:10 dan 1:80 gacha (1:10 va yuqori titr ijobjiy).

RBN. 0,3 ml zardob maxsus emalli plastinkalar o'yiqchalariga quyiladi. Ustiga 0,03 ml Bengal pushtisi bilan bo'yagan brusellyoz antigeni quyiladi. 4 minut davomida sekin chayqatib, aralashtiriladi. Nazorat uchun antigen musbat, manfiy zardoblar, fiziologik eritma bilan reaksiya qo'yildi. Ijobjiy natijada pushti rangda agglyutinat paydo bo'ladi. Ijobjiy natija bergen zardoblar namunasi AR, KBR da qayta tekshiriladi.

Sut halqali reaksiya. Probirkaga 2-3 ml yangi sog'ilgan sut quyib, unga gemotoksilin bilan bo'yagan antigendan 0,2 ml (2 tomchi) ustiga qo'shiladi. Probirkalar silkitib, yahshi aralashtiriladi, 37°C da 45-60 minut suv hammomi yoki termostatda turadi. Ijobjiy natijada – ko'k halqa paydo bo'ladi, sut rangsizlanadi. Manfiy natijada sut ko'k rangda qoladi.

Allergik usul. Brusellyoz bilan kasallangan hayvonlarda terisi ichiga brusellyoz allergenlari yuborilganda allergik reaksiya paydo bo'ladi. Qoramol va cho'chqalar uchun *Br.abortus* ning agglyutinogen bo'limgan shtammidan tayyorlangan allergen brusellizat VIEV ishlataladi. Allergen yuborilgan joyda yaxshi namoyon bo'lgan shishning paydo bo'lishi allergik namunaning ijobjiy natijasi deb hisoblanadi.



3 va 4 rasm. Brutsellyozni serologik tekshirish usuli orqali aniqlash.

Xulosalar

1. Infektion kasalliklarga profilaktik maqsadda allergik diagnostika usullari orqali 36 soatdan 72 soat davomida aniq diagnoz qo'yishimiz mumkin.
2. Brutsellyozga nosog'gom hududlarda o'z vaqtida profilaktik maqsadda laboratoriya tekshirish usullarini o'tkazishimiz zarur.
3. Hayvonlarni profilaktik maqsadda Rev-1 vaksinasi bilan emlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salimov X.S., Qambarov A.A., Salimov I.X., "Epizootologiya va infektion kasalliklar" darslik 2021 yil. Lesson Press MChJ nashriyoti.
2. Salimov X.S., Qambarov A.A. "Epizootologiya" darslik 2016 yil. F.Nasimov nashriyoti
3. Egamberdiyevich, Ruziyev Zohid, Klichov Odil Ilkhomovich, and Allazov Anvar Salokhovich. "Sheep Brucellosis Is A Dangerous Disease (Literature Review)." *Academicia Globe* 2.12 (2021): 11-13.
4. Ilkhomovich, Klichov Odil, Allazov Anvar Salokhovich, and Nurgaliyeva Janar Sarsengaliyevna. "Methods of checking for brucellosis in sheep and prevention measures." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.10 (2021): 825-828.
5. Klichov, O. I., and A. S. Allazov. "BRUTSELLYOZNI SEROLOGIK TEKSHIRISH USULI VA NOSOG'LOM XO'JALIKNI SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI." (2023): 25-28.
6. Klichov, Odil. "BRUTSELLOZNI TEKSHIRISH USULLARI VA OLDINI OLISH TADBIRLARI." *VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDAGI YUTUQLAR MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMI* (2021).
7. Klichov Odil. "BRUTSELLYOZNI DIAGNOSTIKASI." *VETERINARIYA MEDITSINASI* (2023).
8. Klichov Odil. "BRUTSELLYOZ QO'ZG'ATUVCHISINI O'RGANILISH TARIXI." *VETERINARIYA MEDITSINASI* (2023).